

MILLIY JURNALISTIKADA IJTIMOIIY TARMOQ TILI HAMDA TAHRIR MASALALARI MUAMMOLARI

Nodirov Farhod Amirovich

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar
yo'nalishi ikkinchi bosqich magistranti*

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy jurnalistikada ijtimoiy tarmoq tili hamda tahrir masalalari muammolari xususidagi fikrlar ifodalangan.

Kalit so'zlar: til unsurlari, til me'yorlari, milliy jurnalistika, tahrir, ijtimoiy tarmoq tillari.

Abstract: This article reflects on the problems of social networking language and editorial issues in national journalism.

Keywords: language elements, language norms, national journalism, editing, languages of social networks.

KIRISH

Ma'lumotni samarali tahrirlash foydalanuvchi yoki brendning onlayn mavjudligi va obro'siga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Til unsurlaridan nutq faoliyatida foydalanishda jamiyat tomonidan o'rnatilgan muayyan, ijtimoiy, aniqrog'i ma'rifiy va madaniy me'yorlarga rioya qilish talab etiladi. Buni ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritadigan soha mutaxassilari hamda jurnalistlar ijodida aniq ko'rish mumkin. O'zbekistonda rasman ro'yxatdan o'tgan va internet tizimida ommaviy axborot vositalari maqomi asosida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat veb-saytlar ham an'anaviy OAV kabi yagona o'zbek adabiy tili vositalaridan foydalanadi. Shunday ekan, ular til me'yorlari va qoidalariga rioya qilishi shart. Ammo internet materiallarini ko'zdan kechirganda juda ham ko'p grammatik xatoliklar, uslubiy hamda imloviy g'alizliklar uchraydi va bu tabiiy holga ham aylanib ulgurdi. Bu so'z tuzilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi, gap qurilishi g'alizligi kabilar jurnalistga nisbatan salbiy munosabatga va foydalanuvchiga uzatilgan ma'lumotlarni noto'g'ri yetkazilishga sabab bo'ladi. Ko'p hollarda so'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi gap mazmunini tushinishda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, aniq.uz saytida joriy yilning 6-sentyabr kuni joylangan xabar sarlavhasi quyidagicha: "Yo'lovchi samolyoti bomba borligi sababli Turkiyaga favqulodda qo'ndi". Mazkur gapning to'g'ri shakli "Yo'lovchilar uchun mo'ljallangan samolyot bomba borligi sababli Turkiyaga qo'nishiga to'g'ri keldi". Chunki yo'lovchining samolyoti emas, yo'lovchilar uchun mo'ljallangan samolyot nazarda tutilgan. Ko'p hollarda jurnalistlar otlarda kelishiklarni noto'g'ri qo'llab uslubiy xatoga yo'l qo'yadi.

ASOSIY QISM

Soʻzlarni oʻrnida ishlatmaslik ham aksariyat holatda mantiqiy xatoga olib keladi. Masalan, anhor.uz internet nashrining “Fargʻona vodiysida ayollar huquqlari bilan bogʻliq ishlar qay ahvolda?” sarlavhali maqolasida *“Fuqarolik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash markazining Fargʻona viloyati boshqarmasi YUSAID bilan hamkorlikda “Muloqot va rivojlanish forumi” da taqdim etilgan Fargʻona, Namangan va Andijon viloyatlarida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy va mehnat sohalaridagi ahvoliga oid sharhini eʻlon qildi”* deb keltiriladi. Aslida esa “Fuqarolarning tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash markazi Fargʻona viloyati boshqarmasi YUSAID bilan hamkorlikda “Muloqot va rivojlanish forumi” da keltirib oʻtilgan Fargʻona, Namangan va Andijon viloyatlarida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy va mehnat sohalaridagi ahvoliga oid sharhini eʻlon qildi” shaklida yozish kerak edi. Shuningdek, oliygoh.uz saytida ham yuqoridagi kabi muallifi koʻrsatilmagan “Talabalikka qabul” haqidagi postda koʻmakchining nooʻrin qoʻllangani natijasida maʼnoviy gʻalizlik yuzaga kelgan. *“56.7 balldan kam toʻplaganlar uchun talabalikka qabul qilinaydi”*. Aslida esa *“56.7 balldan kam toʻplaganlar talabalikka qabul qilinmaydi”*, boʻlishi kerak edi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda jurnalistlarning materiallarda soʻzni tushirib qoldirishi yoki soʻzlarni almashtirib qoʻyish holatlari ham uchraydi. Bu kabi slubiy xatolar ham davlat va nodavlat veb-saytlarida koʻplab uchraydi. Masalan, Oʻzbekiston axborot agentligining saytida berilgan *“Yuksak sifatli mahsulotlar”* sarlavhali maqolasining nomidayoq uslubiy xatolik mavjud. Chunki sifat yuksak emas, yuqori boʻladi. Bu yerda uslubiy xato oqibatida aniqlik buzilgan va mantiqsizlik kelib chiqqan. Baʼzan fikrni notoʻgʻri ifodalashga soʻzlovchining tushunarsiz soʻzlardan foydalanishi yoki gʻaliz gap tuzishlari sabab boʻladi.

XULOSA

Umuman olganda, milliy jurnalistikada tahrir masalasi juda muhim ahamiyatga ega. Tahrir jarayoni axborotning toʻgʻri, aniq va qiziqarli tarzda taqdim etilishini taʼminlashga qaratilgan. Milliy jurnalistikada tahrir masalasi, shuningdek, millatning maʼnaviyati va madaniyatini rivojlantirishda muhim rol oʻynaydi. Tahrir jarayoni orqali axborotning sifatini oshirish, auditoriyani maʼrifatga yoʻnaltirish va ijtimoiy muammolarni yoritish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar orqali maʼlumot almashinish jarayoni yuqorida keltirilganidek, tezkor va bu ortiqcha vaqt sarflamaslikka olib keladi. Quyidagi jihatlar esa ijtimoiy tarmoq hamda milliy jurnalistikada tahrir masalasining asosiy tomonlarini tashkil etadi:

1. Mahalliy kontekst. Milliy jurnalistika oʻz xalqining madaniyati, tarixi va anʼanalariga mos ravishda axborot berishi kerak. Tahrir jarayonida bu xususiyatni hisobga olish muhimdir.

2. Axborotning aniqligi. Tahrirchilar maqolalardagi faktlarni tekshirish va ularning ishonchliligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni yig'ishlari kerak.

3. Til va uslub. Milliy jurnalistika o'z auditoriyasiga mos keladigan til va uslubni tanlashi zarur. Tahrir jarayonida bu jihatlarni hisobga olish muhimdir.

4. Etika va mas'uliyat. Jurnalistlar va tahrirchilar axborotni adolatli va tarafkashlikdan holi tarzda taqdim etishlari kerak. Bu, ayniqsa, milliy masalalarda muhimdir.

5. Ommaviy axborot vositalarining roli. Tahrir masalasi ommaviy axborot vositalarining sifatini oshirishga yordam beradi. Yaxshi tahrirlangan materiallar auditoriyani jalb qiladi va axborotning ta'sirini kuchaytiradi.

6. Innovatsiyalar va texnologiyalar. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar tahrir jarayonini o'zgartirmoqda. Bu yangi imkoniyatlarni keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR

1. Abduazimova N. A. Mustaqil O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. T.:
2. Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, 2017.
3. M o'minov F A . Sotsiologiya va jurnalist faoliyati. T., 2015.
4. M o'minov FA . Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. T.:Universitet, 1998.
5. Xudoyqulov M. Badiiy publitsistika janrlari: Ocquv qoilanmasi. T.: O'zMU, 2004.
6. oliygoh.uz.
7. O'zbekiston axborot agentligi. <https://uza.uz/uz>.
8. anhor.uz internet nashri.